# XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 7 - yanvar VI-52-5-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

**Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.**

Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Nazarovning O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisobotini inobatga olib va deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI.**

1. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Nazarovning O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Moliya bo‘limi mudiri (I.Kushakov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (N.Nazarov)larga:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida Muzrabot tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 22,7 million.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 213,86 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televidinya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Abdurasulov) va “Muzrabot gazetasi” taxririyati (A.Yo‘ldashev)larga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Sessiya raisi** **T.Tangirov**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-52-5-8-115-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Muzrabot tumanidagi mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar

## 2023-yil

| № | Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi | Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi | | Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Koeffitsent miqdori | Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda) | Koeffitsent miqdori | Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda) |
| 1 | Alpomish MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 2 | Anorzor MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 3 | At Termiziy MFY | 0,75 | 24 360 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 4 | Bog'i eram MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 5 | Bodomzor MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 6 | Buyuk ipak yo‘li MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 7 | Guliston MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 8 | Gulobod MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 9 | Darband MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 10 | Dexqonobod MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 11 | Duoba MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 12 | Dustlik MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 13 | Yulchi MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 14 | Madaniyat MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 15 | Mexnatabod MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 16 | Mexrigiyox MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 17 | Moxiyat MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 18 | Muzrabot darvoza MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 19 | Mustaqillik MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 20 | Navruz MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 21 | Nurli xayot MFY | 0,90 | 29 232 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 22 | Obi xayot MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 23 | Obod turmush MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 24 | Olmazor MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 25 | Oriyat MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 26 | Sopollitepa MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 27 | Tong yulduzi MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 28 | Fayziobod MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 29 | Fidokor MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 30 | Xalq yuli MFY | 0,75 | 24 360 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 31 | Chegarachi MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 32 | Shaffof MFY | 0,90 | 29 232 000,00 | 0,75 | 229,14 |
| 33 | Yurtim jamoli MFY | 0,75 | 24 360 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 34 | Yakkatol MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 35 | Yangi diyor MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |
| 36 | Yangi xayot MFY | 0,90 | 29 232 000,00 | 0,75 | 229,14 |
| 37 | Yangiyer MFY | 0,70 | 22 736 000,00 | 0,70 | 213,86 |